

**FUQAROLIK HUQUQIDA SHARTNOMA VA BITIM INSTITUTI:
QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL**

*Tulepova Zulfiya Urazbaevna
2-kurs magistranti, QDU*

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik huquqida shartnoma va bitim tushunchalari, ularning turlari, tuzilish shartlari yoritib berilgan. Shuningdek, fuqarolik huquqidagi shartnoma va bitim institutiga qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijasi shuni kòrsatdi, shartnoma va bitim tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ularning turlari va tuzilish shartlarida keskin farqlarni kòrsak bòladi.

Kalit sòzlar: Fuqarolik kodeksi, fuqarolik huquqi, shartnoma, bitim, turlar, tuzilish, tushuncha.

Erkin bozor munosabatlariga o'tib borilayotgan bir davrda ijtimoiy- iqtisodiy tizimni fuqarolik huquqi subyektlarining huquqiy holati va ular o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar tabiatining o'ziga xos tarzda o'zgarishi va yangicha mazmun bilan boyimoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolik huquqi subyektlari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish va ularni muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Shu bois, ushbu maqolaning maqsadi fuqarolik huquqida yuzaga keluvchi shartnoma va bitim tushunchalari, ularning tuzilishi va turlarini yoritib berishga qaratilgan. Shuningdek, maqola shu ikki tushunchaning qiyosiy-huquqiy tahliliga asoslangan. Shu bois, fuqarolik huquqida shartnoma va bitim institutiga bog'liq mìlumotlarga asoslanib, ularni quyidagicha tahlil qildik:

Kategoriyalari	Shartnoma	Bitim
Tushunchasi	Shartnoma ikki yoki undan ortiq shaxsnинг fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvdir	Bitimlar deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakat- larga aytildi (FKning 101-moddasi).
Tuzilish shartlari	Shartno- maning umumiylarida tuzilishi ikki davr bilan belgilanadi.Birinchi davr — shartnoma tuzishga taklif qilish davri, bu — oferta, shartnoma tuzishga taklif qiluvchi esa, offerent, deb ataladi.Ikkinchi davr — shartnoma tuzish	Bitimlar tushunchasi uchun quyidagi shartlar muhimdir:a) bitim tuzuvchi shaxs fuqarolik huquqining subyekti hisoblanadi;b) muayyan bitimni tuzuvchi shaxsda bu bitimni tuzish erki bo'lishi va bu erk ma'lum

	to‘g‘risidagi taklifni qabul qilish davri bu — aksept, taklifni qabul qiluvchi — akseptant deb aytildi.	huquqiy oqibatlar tug‘dirishga qaratilgan boMishi lozim;d) shaxsnинг erki muayyan yuridik fakt hisoblangan harakatda o‘zining tashqi ifodasini topishi, ya’ni maMum shaklda izhor qilingan boMishi kerak.
Turlari	Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo‘lib, hech qanday majburiyat bo‘lmaydi, ikkinchi tarafda esa, faqat majburiyat bo‘ladi.	Bir tomonlama bitimda faqat bir tomonning erki ifodalanadi, huquq va majburiyat faqat bir tomonning irodasi bo‘yicha vujudga keladi, o‘zgaradi yoki bekor bo‘ladi.
	Ikki tomonlama shartnomada esa, har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo‘ladi.	Ikki tomonlama bitimlar har ikki tomonning erkiga muvofiq tuziladi. Bunday bitimlar shartnomalardir.
	Ko‘p tomonlama shartnomalar ham mavjud bo‘lib, unda taraflar uch va undan ortiq boMadi. Bunday shartlarda bir paytning o‘zida har bir farafda muayyan huquq va majburiyatlar bo‘lishi xarakterlidir.	Ko‘p tomonlama bitimlar uch va undan ortiq shaxslaming erklari ifodalanib tuziladi.
	Konsensual shartnomalar huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirgan zahoti tuzilgan hisoblanadi.	Konsensual bitim deb huquq va majburiyatlarni o‘zaro kelishish va bunday kelishuvni lozim tartibda rasmiylashtirish paytida vujudga keltiradigan bitimga aytildi.
	Real shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlar taraflar o‘zaro kelishgan va shartnoma narsasi ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.	Real bitim deb o‘zaro kelishuvga muvofiq ashyolar yoki pulni topshirish paytida huquq va majburiyatni vujudga keltiradigan bitimga aytildi

Tahlildan kòrinib turganidek, shartnoma va bitim tushunchalari bir-biri bilan bog‘liq tushunchalardir. Ammo, ular tuzilishi va turlari bøyicha bir-birlaridan farq qiladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumoarga asoslanib shuni aytib ötish lozimki, fuqarolik huquqida shartnoma va bitim tushunchalari muhim ahamiyatga ega. Tahlil

natijalari shuni kòrsatdi, shartnoma va bitim tushunchalari bir-biri bilan bog'liq tushunchalardir. Ammo, ular tuzilishi va turlari boyicha bir-birlaridan farq qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. —T.: Adolat,2007.
2. Rahmonqulov H. Fuqarolik huquqining subyektlari. 0'quv qoMlanma.— T.: «Ozbekiston», 2008.
3. Ro'ziyev R.J. Fuqarolik huquqi — T.: «Falsafa va huquq instituti» 2005.
4. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. Darslik. —T: TDYUI, 2009.
5. Zokirov I.B., Oqyulov O.tTopildiyev V.R. va boshqalar. Shartnoma huquqi. - T.,TDYUI, 2006.